Keywords: foreign trade policy, trade regulation mechanisms, tariff and non-tariff measures, international trade, economic integration, export-import policy, trade liberalization.

Аннотация. В статье проведён комплексный анализ экономической сущности и особенностей механизмов регулирования внешнеторговой политики в мировой практике. Рассмотрены тарифные и нетарифные методы регулирования внешней торговли, институциональные механизмы реализации торговой политики, а также роль международных торговых организаций. На основе сравнительного анализа опыта развитых и развивающихся стран обобщены современные подходы к формированию эффективной внешнеторговой политики.

Ключевые слова: внешнеторговая политика, механизмы регулирования торговли, тарифные и нетарифные меры, международная торговля, экономическая интеграция, экспортно-импортная политика, либерализация торговли.

KIRISH

Bugungi globallasuv sharoitida jahon iqtisodiyotida yuz berayotgan chuqur tarkibiy o'zgarishlar, xalqaro savdo munosabatlarning murakkablashuvi hamda geoiqtisodiy muhitning dinamik rivojlanishi davlatlardan tashqi savdo siyosatini zamon talablariga mos ravishda takomillashtirib borishni talab etmoqda. Jahon bozorlarida raqobatning kuchayishi, ayrim hollarda himoya choralarining qo'llanilishi hamda global ta'minot zanjirlaridagi uzilishlar sharoitida eksport salohiyatini oshirish milliy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishini ta'minlovchi muhim strategik omillardan biriga aylanmoqda.

O'zbekiston Respublikasida mustaqillik yillaridan buyon tashqi savdo siyosatini rivojlantirish, xalqaro iqtisodiy aloqalarni kengaytirish hamda jahon xo'jaligi tizimiga integratsiyalashuvni chuqurlashtirishga qaratilgan izchil islohotlar amalga oshirib kelinmoqda. Ayniqsa, so'nggi yillarda mamlakatda tashqi iqtisodiy faoliyatni liberallashtirish, eksportni qo'llab-quvvatlash va savdo tartib-taomillarini soddalashtirishga qaratilgan normativ-huquqiy baza sezilarli darajada takomillashtirildi.

Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli Farmoni bilan tasdiqlangan 2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasida tashqi savdoni rivojlantirish, eksport hajmini oshirish, yuqori qo'shimcha qiymatli mahsulotlar eksportini kengaytirish hamda eksport geografiasini diversifikatsiya qilish ustuvor yo'nalishlar sifatida belgilangan [1]. Mazkur strategiyada eksportchi korxonalarni qo'llab-quvvatlash, bojxona tartib-taomillarini soddalashtirish va tashqi savdo infratuzilmasini rivojlantirish muhim vazifalar qatorida e'tirof etilgan.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-sonli "O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risidagi Farmonida ochiq va faol tashqi iqtisodiy siyosat yuritish, mintaqaviy hamda xalqaro iqtisodiy integratsiyani kengaytirish, MDH mamlakatlari bilan savdo-iqtisodiy aloqalarni mustahkamlash ustuvor yo'nalishlar sifatida belgilangan [2]. Ushbu hujjatda tashqi savdo siyosatini takomillashtirish orqali eksport salohiyatini oshirish mamlakatning uzoq muddatli iqtisodiy rivojlanishini ta'minlashning muhim omili sifatida qayd etilgan.

Bundan tashqari, mamlakatda eksport faoliyatini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan qator Prezident farmonlari va hukumat qarorlari qabul qilinib, ular eksportchi subyektlar uchun moliyaviy, bojxona va institutsional rag'batlantirish mexanizmlarini kengaytirishga xizmat qilmoqda. Ushbu normativ-huquqiy asoslar tashqi savdo operatsiyalarining samaradorligini oshirish, ularning shaffofligini ta'minlash hamda milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini kuchaytirishga yo'naltirilgan bo'lib, ularni ilmiy jihatdan tahlil qilish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Xorijiy, xususan g'arb mamlakatlari olimlari tomonidan tashqi savdo siyosatini tartibga solish masalalari asosan savdo liberallasuvi, global iqtisodiy integratsiya, institutsional islohotlar hamda xalqaro raqobatbardoshlik nuqtayi nazaridan o'rganilgan. Mazkur tadqiqotlarda tashqi savdo siyosati milliy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishini ta'minlash, xalqaro savdo oqimlarini muvofiqlashtirish va iqtisodiy o'sishni rag'batlantirishning muhim omillaridan biri sifatida talqin etiladi.

Stephen W. Jones o'z ilmiy izlanishlarida tashqi savdo siyosatining makroiqtisodiy barqarorlikka ta'siri, davlat tomonidan savdoni tartibga solish mexanizmlari hamda uning institutsional asoslarini tahlil qilgan [3]. Uning tadqiqotlarida ochiq savdo siyosati iqtisodiy o'sish sur'atlarini tezlashtirishi va xalqaro savdo aloqalarining kengayishiga xizmat qilishi ilmiy jihatdan asoslab berilgan.

David R. Kolb tashqi savdo siyosati va iqtisodiy rivojlanish o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni, ayniqsa rivojlanayotgan mamlakatlar misolida, eksportni diversifikatsiya qilish va ishlab chiqarish samaradorligini oshirish orqali izohlagan [4]. Uning fikricha, savdo siyosatini samarali tashkil etish mamlakatlarning global iqtisodiy tizimga integratsiyalashuv darajasini sezilarli darajada oshiradi.

Rossiyalik olimlar tashqi savdo siyosatini asosan davlat iqtisodiy siyosati, milliy manfaatlar va iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash nuqtayi nazaridan o'rganadilar. Ularning ilmiy ishlarida tashqi savdo siyosati strategik boshqaruv vositasi sifatida talqin qilinadi. Jumladan, Kudrov V.M. tashqi savdo siyosatining iqtisodiy o'sishga ta'siri, jahon xo'jaligiga integratsiyalashuv jarayonlari hamda eksport-import operatsiyalarining makroiqtisodiy natijalarini chuqur tahlil qilgan [5]. U tashqi savdo siyosatini milliy ishlab chiqarishni qo'llab-quvvatlash va iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash omili sifatida baholaydi.

Ivanov S.P. esa tashqi savdo siyosati va iqtisodiy o'sish o'rtasidagi sabab-oqibat munosabatlarini iqtisodiy-statistik modellar asosida tahlil qilib, savdo siyosatidagi o'zgarishlarning uzoq muddatli iqtisodiy rivojlanishga ta'sirini aniqlagan [6]. Uning tadqiqotlari tashqi savdo siyosatini muvozanatli va izchil olib borish milliy iqtisodiyot barqarorligini mustahkamlashini ko'rsatadi.

O'zbekiston olimlari tomonidan tashqi savdo siyosati va tashqi iqtisodiy faoliyatni tartibga solish masalalari milliy iqtisodiyotning tarkibiy xususiyatlari, davlat islohotlari va strategik rivojlanish dasturlari bilan uzviy bog'liq holda o'rganilgan. Xususan, Sh. Shavkatov, A. Tashpulatov, G. Iskandarova, N. Mahmudova, O. Saidov va K. Abdullayev o'z ilmiy ishlarida O'zbekiston tashqi savdo siyosatining shakllanish bosqichlari, xalqaro iqtisodiy integratsiya jarayonlari hamda tashqi savdo faoliyatini tartibga solish mexanizmlarini tahlil qilganlar [7].

Karimov A. tashqi savdo faoliyatining iqtisodiy o'sishga ta'sirini iqtisodiy siyosat va tarkibiy o'zgarishlar bilan bog'liq holda o'rganib, eksportni rag'batlantirish va importni maqbullashtirish orqali tashqi savdo samaradorligini oshirish bo'yicha ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqqan [8].



Rustamov M. va Islomov F. esa tashqi savdo siyosatining iqtisodiy rivojlanishga ta'sir etuvchi omillarini tahlil qilib, eksport-import operatsiyalarini takomillashtirish hamda tashqi savdo mexanizmlarini modernizatsiya qilish bo'yicha amaliy tavsiyalar berganlar [9].

So'nggi yillarda Ilyosov A.A. tomonidan sanoat mahsulotlari eksportini rivojlantirish, eksport klasterlarini shakllantirish hamda eksportni qo'llab-quvvatlashning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirishga bag'ishlangan tadqiqotlar olib borilgan [10]. Shuningdek, Kurpayanidi K.I. va Abdullayev A.M. tashqi iqtisodiy faoliyatning innovatsion rivojlanishdagi o'rnini asoslab berib, tashqi savdo siyosatini modernizatsiya qilishning nazariy va amaliy jihatlarini yoritganlar [11].

Shu bilan birga, tahlillar shuni ko'rsatadiki, mavjud ilmiy adabiyotlarda tashqi savdo siyosatini tartibga solish mexanizmlarining zamonaviy global sharoitdagi kompleks bahosi, xususan, tarif va notarif choralar samaradorligini qiyosiy tahlil qilish masalalari yetarli darajada yoritilmagan. Mazkur holat ushbu tadqiqotning dolzarbligini belgilaydi va tashqi savdo siyosatini samarali tashkil etishning nazariy hamda amaliy jihatlarini chuqurroq o'rganishni taqozo etadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqot metodologiyasi jahon amaliyotida tashqi savdo siyosatini tartibga solish mexanizmlarining iqtisodiy mazmuni hamda ularning milliy iqtisodiyot rivojlanishiga ta'sirini kompleks tahlil qilishga qaratilgan bo'lib, u xalqaro savdo nazariyasi, institutsional iqtisodiyot va tashqi iqtisodiy faoliyatni tartibga solish konsepsiyalariga asoslanadi.

Tadqiqot jarayonida tashqi savdoni tartibga solishning tarif va notarif usullari, savdo siyosatini amalga oshirishning institutsional mexanizmlari hamda rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar tajribasi qiyosiy tahlil asosida o'rganildi. Shuningdek, turli mamlakatlarda qo'llanilayotgan savdo siyosati instrumentlarining iqtisodiy samaradorligi va ularning eksport-import operatsiyalariga ta'siri tizimli yondashuv asosida baholandi.

Tadqiqotda ilmiy bilishning quyidagi usullaridan keng foydalanildi:

- tahlil va sintez usuli orqali tashqi savdo siyosatining asosiy elementlari va ularning o'zaro bog'liqligi aniqlashtirildi;

- qiyosiy tahlil usuli yordamida turli mamlakatlar savdo siyosati tajribasi solishtirildi;

- umumlashtirish usuli orqali ilg'or yondashuvlar tizimlashtirildi;

- statistik tahlil usuli orqali xalqaro savdo ko'rsatkichlari va ularning dinamikasi baholandi.

Ma'lumotlar bazasi sifatida xalqaro tashkilotlar (Jahon banki, Jahon savdo tashkiloti, Xalqaro valyuta jamg'armasi), milliy statistika organlari ma'lumotlari, ilmiy maqolalar, monografiyalar hamda ochiq statistik ma'lumotlar bazalaridan foydalanildi.

Mazkur metodologik yondashuv tadqiqot natijalarining ishonchligini ta'minlab, tashqi savdo siyosatini samarali tashkil etish bo'yicha ilmiy asoslangan xulosalar va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish imkonini berdi.


TAHLIL VA NATIJALAR

Jahon amaliyotida tashqi savdo siyosatini tartibga solish mexanizmlari davlatlarning iqtisodiy rivojlanish darajasi, milliy manfaatlari va xalqaro iqtisodiy integratsiya darajasiga mos ravishda shakllanadi. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, rivojlangan mamlakatlarda tashqi savdo siyosati asosan savdo liberallasuvi, bozor mexanizmlarini qo'llab-quvvatlash hamda xalqaro savdo tashkilotlari bilan samarali hamkorlikni rivojlantirish orqali amalga oshiriladi. Shu bilan birga, ushbu davlatlar raqobatbardoshlikni oshirish maqsadida innovatsion mahsulotlar eksportini rag'batlantirishga alohida e'tibor qaratadilar.

Tashqi savdoni tartibga solishning muhim instrumentlaridan biri tarif siyosati hisoblanadi. Ko'plab mamlakatlarda bojxona tariflari orqali milliy ishlab chiqaruvchilarni qo'llab-quvvatlash, ichki bozorni muvozanatlash va savdo balansini barqarorlashtirishga erishiladi. Biroq global savdo tizimining rivojlanishi va xalqaro tashkilotlar talablarining kuchayishi natijasida tarif to'siqlari bosqichma-bosqich qisqartirilmoqda. Natijada, tashqi savdoni tartibga solishda notarif usullar – kvotalar, texnik reglamentlar, sanitariya va fitosanitariya talablari, litsenziyalash hamda sertifikatlash tizimlari keng qo'llanilmoqda.

Rivojlanayotgan mamlakatlarda esa tashqi savdo siyosati ko'proq milliy ishlab chiqarishni rivojlantirish, import o'rnini bosish va eksportni qo'llab-quvvatlashga yo'naltirilgan. Bu mamlakatlarda tarif va notarif choralar birgalikda qo'llanilib, iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash hamda mahalliy sanoatni himoya qilish muhim ahamiyat kasb etadi.

So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasining tashqi savdo aloqalari jadal rivojlanib, mamlakatning asosiy savdo hamkorlari bilan savdo aylanmasi sezilarli darajada kengaymoqda. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, 2023–2025-yillarda O'zbekistonning tashqi savdo aylanmasi barqaror o'sish tendensiyasini namoyon etgan [12] (1-rasm).



1-rasm. O'zbekiston Respublikasining tashqi savdo ko'rsatkichlari dinamikasi (2023–2025-yillar, mln AQSH dollari)¹

1-rasm ma'lumotlariga ko'ra, 2023–2025-yillarda O'zbekiston Respublikasining tashqi savdo aylanmasi barqaror o'sish tendensiyasini namoyon etgan. Xususan, tashqi savdo aylanmasi 2023-yilda 60 528,6 mln AQSH dollarini tashkil etgan bo'lsa, 2024-yilda 67 238,4 mln dollarga, 2025-yilda esa 81 166,8 mln dollarga yetgan. Bu esa mamlakatning xalqaro savdo aloqalari kengayib borayotganini ko'rsatadi.


Eksport hajmi ham ijobiy o'sish dinamikasiga ega bo'lib, 2023-yildagi 24 869,5 mln dollardan 2024-yilda 27 270,1 mln dollarga va 2025-yilda 33 812,3 mln dollarga oshgan. Bu holat mamlakat eksport salohiyati kengayib borayotganini hamda milliy mahsulotlarning tashqi bozorlardagi raqobatbardoshligi ortib borayotganini ko'rsatadi.

Shu bilan birga, import hajmi ham sezilarli darajada o'sib borgan. 2023-yilda import 38 659,1 mln dollarni tashkil etgan bo'lsa, 2024-yilda 39 968,3 mln dollarga, 2025-yilda esa 47 354,5 mln dollarga yetgan. Import hajmining yuqori bo'lishi mamlakat iqtisodiyotida ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, sanoatni rivojlantirish hamda yangi texnologiyalarni joriy etish bilan bog'liq.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, ko'rib chiqilayotgan davrda tashqi savdo balansida manfiy saldo saqlanib qolgan. 2023-yilda manfiy saldo 13 789,6 mln dollarni tashkil etgan bo'lsa, 2024-yilda 12 698,2 mln dollargacha kamaygan, biroq 2025-yilda yana 13 542,2 mln dollarga yetgan. Bu esa import hajmining eksportga nisbatan yuqoriligini ko'rsatadi hamda tashqi savdo siyosatini takomillashtirish, eksportni diversifikatsiya qilish va yuqori qo'shilgan qiymatga ega mahsulotlar ulushini oshirish zarurligini anglatadi.

Jahon amaliyotida tashqi savdo siyosatini tartibga solish davlat iqtisodiy siyosatining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Ushbu siyosat mamlakatning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash, mahalliy ishlab chiqaruvchilarni qo'llab-quvvatlash hamda milliy iqtisodiyotning xalqaro bozorlarga integratsiyalashuvini muvozanatlashga xizmat qiladi. Shu sababli turli davlatlar tashqi savdoni tartibga solishda iqtisodiy, huquqiy va institutsional mexanizmlardan foydalanadilar.

Xalqaro amaliyotda tashqi savdo siyosatini tartibga solish asosan tarif va notarif mexanizmlar orqali amalga oshiriladi^[13] (2-rasm).



2-rasm. Jahon amaliyotida tashqi savdo siyosatini tartibga solish mexanizmlari²

1 Muallif ishlanmasi

2 Muallif ishlanmasi



Tarif usullari (bojxona-tarif tartibga solish). Tarif mexanizmlari import qilinayotgan tovarlar narxiga bevosita ta'sir ko'rsatish orqali ichki bozorni tartibga solishga xizmat qiladi. Bunda import bojxonalari mahalliy ishlab chiqaruvchilarni arzon import mahsulotlaridan himoya qilishga qaratilgan bo'lsa, eksport bojxonalari ayrim strategik xomashyo resurslarini mamlakat ichida qayta ishlashni rag'batlantirish uchun qo'llaniladi. Shuningdek, ayrim davlatlar bilan tuzilgan savdo kelishuvlari doirasida preferensial boj stavkalari qo'llanilishi ham tashqi savdoni tartibga solishning muhim vositalaridan hisoblanadi.

Tarif bo'lmagan usullar. Hozirgi davrda Jahon savdo tashkiloti qoidalariga muvofiq tarif stavkalarining bosqichma-bosqich pasayib borishi natijasida davlatlar tashqi savdoni tartibga solishda ko'proq notarif usullardan foydalanmoqda. Jumladan, import kvotalari va litsenziyalash tizimi orqali ayrim tovarlarning import hajmi cheklanadi. Shuningdek, mahsulotlarning sifatini ta'minlash maqsadida texnik standartlar, sanitariya va fitosanitariya talablari joriy etiladi. Bundan tashqari, dempingga qarshi choralar ham ichki bozorni himoya qilishda muhim ahamiyatga ega.

Rivojlangan davlatlar tashqi savdo siyosatini tartibga solishda turli iqtisodiy modellardan foydalanadi[14] (1-jadval).

1-jadval. Tashqi savdo siyosatini tartibga solish bo'yicha jahon tajribasi³

Davlat / model	Asosiy yo'nalishi	Qo'llaniladigan mexanizm
Janubiy Koreya	Eksportga yo'naltirilgan iqtisodiyot	Eksport qiluvchi korxonalarga soliq imtiyozlari va imtiyozli kreditlar
Yevropa Ittifoqi	Yagona standartlashtirish	Texnik reglamentlar, ekologik talablar va sifat sertifikatlari
Xitoy	Erkin iqtisodiy zonalar	Soliq va bojxona imtiyozlari orqali investitsiya jalb etish
Singapur	Erkin savdo siyosati	Bojsiz savdo rejimi va raqamli bojxona tizimi


Janubiy Koreyada eksportga yo'naltirilgan iqtisodiy model asosida eksport qiluvchi korxonalar uchun soliq imtiyozlari va imtiyozli kreditlar tizimi joriy etilgan. Bu esa milliy mahsulotlarning xalqaro bozorlardagi raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qilmoqda.

Yevropa Ittifoqida esa yagona savdo siyosati doirasida mahsulotlar sifatini nazorat qiluvchi qat'iy standartlar tizimi amal qiladi. Xususan, ekologik talablar va texnik reglamentlar orqali ichki bozor tartibga solinadi.

Xitoyda erkin iqtisodiy zonalar tashkil etish orqali tashqi savdoni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilgan. Ushbu hududlarda bojxona va soliq imtiyozlari berilishi investitsiyalarni jalb qilish va eksport hajmini oshirishga xizmat qilmoqda.

Singapur tajribasida esa erkin savdo tamoyillari ustuvor ahamiyat kasb etadi. Bu mamlakatda bojsiz savdo rejimi hamda raqamli bojxona xizmatlari joriy etilgan bo'lib, savdo jarayonlari maksimal darajada soddalashtirilgan.

Bugungi kunda jahon savdo tizimida tashqi savdoni tartibga solishning yangi yondashuvlari shakllanmoqda. Xususan, "raqamli bojxona" yoki "paperless trade" tizimlari hujjat aylanishini elektron shaklga o'tkazish orqali savdo operatsiyalarini tezlashtirmoqda. Shuningdek, ekologik standartlar va uglerod solig'i kabi mexanizmlar orqali proteksionizmning yangi shakllari paydo bo'lmoqda[15] (3-rasm).



3-rasm. Jahon savdosida tashqi savdo siyosatini tartibga solishning zamonaviy tendensiyalari⁴


3 Muallif ishlanmasi

4 Muallif ishlanmasi

Bundan tashqari, mintaqaviy iqtisodiy integratsiya jarayonlari ham tashqi savdo siyosatini tartibga solishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. ASEAN, Yevropa Ittifoqi va boshqa mintaqaviy ittifoqlar doirasida imtiyozli savdo rejimlari joriy etilishi xalqaro savdo aloqalarining rivojlanishiga xizmat qilmoqda.

Umuman olganda, jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, samarali tashqi savdo siyosati bozorni to'liq yopish yoki to'liq liberallashtirishdan iborat emas. Aksincha, eksportni rag'batlantirish, mahalliy ishlab chiqarishni qo'llab-quvvatlash hamda xalqaro savdo tizimi bilan integratsiyani muvozanatli tarzda uyg'unlashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Yuqorida keltirilgan jahon tajribasi hamda tashqi savdo siyosatini tartibga solishning asosiy mexanizmlari tahlili shuni ko'rsatadiki, milliy iqtisodiyot sharoitida ushbu yondashuvlarni tizimli ravishda qo'llash muhim ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtai nazardan, O'zbekiston tashqi savdo siyosatini yanada rivojlantirish, eksport salohiyatini oshirish hamda xalqaro savdo tizimiga integratsiyani kuchaytirish maqsadida kompleks strategik yondashuvni shakllantirish zarur (4-rasm).



4-rasm. O'zbekiston tashqi savdo siyosatini rivojlantirishning kompleks strategik modeli⁵

Mazkur model O'zbekiston tashqi savdo siyosatini rivojlantirishning ustuvor strategik yo'nalishlarini kompleks tarzda aks ettiradi. Modelga ko'ra, tashqi savdo siyosatini takomillashtirish eksportni rivojlantirish, import siyosatini optimallashtirish hamda institutsional islohotlarni amalga oshirish orqali ta'minlanadi. Shu bilan birga, transport-logistika infratuzilmasini rivojlantirish, raqamli bojxona xizmatlarini joriy etish hamda xalqaro iqtisodiy integratsiyani kuchaytirish tashqi savdo samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Natijada milliy iqtisodiyotning xalqaro bozordagi raqobatbardoshligi oshib, barqaror iqtisodiy o'sish uchun zarur shart-sharoitlar yaratiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'tkazilgan tadqiqotlar natijalari shuni ko'rsatadiki, jahon amaliyotida tashqi savdo siyosatini tartibga solish mexanizmlari mamlakatlarning iqtisodiy rivojlanish darajasi, milliy manfaatlari hamda xalqaro iqtisodiy integratsiya jarayonlariga mos ravishda shakllanadi. Rivojlangan mamlakatlar tajribasi tashqi savdoni tartibga solishda tarif va notarif mexanizmlarning optimal uyg'unligini ta'minlash, eksportni rag'batlantirish hamda institutsional tizimni takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etishini ko'rsatadi.

Tahlillar shuni tasdiqlaydiki, tashqi savdo siyosatini samarali tashkil etish milliy iqtisodiyotning xalqaro bozordagi raqobatbardoshligini oshirish, eksport salohiyatini kengaytirish hamda barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Shu bilan birga, jahon tajribasi tashqi savdo siyosatida to'liq liberallashtirish yoki qat'iy himoya choralarini alohida qo'llashdan ko'ra, ushbu yondashuvlar o'rtasida muvozanatni ta'minlash yanada samarali natija berishini ko'rsatadi.



Olib borilgan tadqiqotlar asosida quyidagi amaliy takliflar ilgari suriladi:

- tashqi savdo siyosatini tartibga solishda xalqaro tajribada sinovdan o'tgan samarali tarif va notarif mexanizmlarni milliy iqtisodiyot xususiyatlariga moslashtirib joriy etish;
- eksportni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan institutsional mexanizmlarni yanada rivojlantirish, eksport qiluvchi korxonalar uchun moliyaviy va tashkiliy rag'batlantirish tizimini kengaytirish;
- yuqori qo'shimcha qiymatga ega mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish orqali eksport tarkibini diversifikatsiya qilish va yangi bozor segmentlarini o'zlashtirish;
- transport-logistika infratuzilmasini modernizatsiya qilish hamda raqamli bojxona va savdo tizimlarini keng joriy etish orqali tashqi savdo operatsiyalarini soddalashtirish va tezlashtirish;
- xalqaro iqtisodiy tashkilotlar va mintaqaviy savdo integratsiya tuzilmalari bilan hamkorlikni mustahkamlash orqali O'zbekistonning jahon savdo tizimidagi ishtirokini kengaytirish.

Tashqi savdo siyosatini kompleks va muvozanatli asosda tashkil etish eksport hajmini oshirish, milliy ishlab chiqarishni rivojlantirish hamda mamlakat iqtisodiyotining global savdo tizimidagi raqobatbardoshligini mustahkamlashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli Farmoni. "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida". <https://lex.uz/ru/docs/-5841063>
2. Jones S.W. International Trade and Economic Growth. – New York: Routledge, 2017. – 298 p.
3. Kolb D.R. Globalization and Export Diversification. – London: Palgrave Macmillan, 2016. – 265 p.
4. Kudrov V.M. Rossiya v sisteme mirovoy ekonomiki. – Moskva: Ekonomist, 2017. – 384 s.
5. Ivanov S.P. Vneshnyaya trgovlya i ekonomicheskiy rost. – Moskva: Nauka, 2018. – 296 s.
6. Shavkatov Sh. O'zbekiston Respublikasining tashqi savdo siyosatini rivojlantirish tendensiyalari. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2019. – 156 b.
7. Tashpulatov A. Eksport faoliyatini rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2020. – 142 b.
8. Iskandarova G. Tashqi savdo va iqtisodiy o'sish: nazariya va amaliyot. – Toshkent: Innovatsiya, 2018. – 168 b.
9. Mahmudova N. Milliy iqtisodiyotda tashqi savdo siyosatini takomillashtirish masalalari. – Toshkent: Iqtisodiyot nashriyoti, 2021. – 134 b.
10. Saidov O. Iqtisodiy integratsiya va tashqi savdo aloqalari. – Toshkent: Universitet, 2017. – 149 b.
11. Abdullayev K. Tashqi savdo siyosatini modernizatsiya qilish yo'llari. – Toshkent: Fan, 2020. – 128 b.
12. Karimov A. Tashqi savdo faoliyatining iqtisodiy o'sishga ta'siri. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2018. – 120 b.
13. Rustamov M., Islomov F. Eksport-import operatsiyalarini takomillashtirish masalalari. – Toshkent: Iqtisodiyot va ta'lim, 2019. – 112 b.
14. Ilyosov A.A. Sanoat mahsulotlari eksportining tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2022. – 176 b.
15. Kurpayanidi K.I., Abdullayev A.M. Innovatsion tashqi iqtisodiy faoliyat va eksport salohiyati. – Toshkent: Innovatsiya, 2018. – 158 b.
16. Karimov I. Qurilish korxonalarida investitsiyalarni boshqarishning xorijiy tajribalari va ularni mamlakatimizda qo'llash yo'llari // Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot. – 2025. – T. 3, №4.
17. Yusupdjanova N., Karimov I. Investment projects in the field of construction materials production // Theoretical & Applied Science. – 2020. – №3. – P. 18–21.
18. Karimova I. Qurilish sohasida investitsion faoliyatni shakllantirishning nazariy va amaliy asoslari // Muhandislik va iqtisodiyot. – 2025. – T. 3, №4.
19. Karimovich G.I., Ortikbayevich K.I. The role and importance of the TIME factor in determining the effectiveness of investment management in construction enterprises // American Journal of Business Management, Economics, and Banking. – 2023. – Vol. 19. – P. 93–99.
20. Karimov I.O. Attracting investment projects to the construction industry and improving their efficiency // Ekonomika: analizy i prognozy. – 2021. – №2. – P. 127–134.
21. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi rasmiy sayti: <https://stat.uz>

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Abdurahmon Qurbonov

2026. № 3

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100